

## SOLIQQA TORTILMAYDIGAN DAROMAD MIQDORI ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH IMKONIYATLARI

***Niyazmetov Islambek Masharipovich***

*Ma'mun universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori*

***Xaydarov Alisher Akram o'g'li***

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti*

Hozirgi sharoitda aholining zarur yashash ehtiyojlarini ta'minlash uchun daromadning ma'lum qismini soliqqa tortishdan ozod etish zarurligi keng e'tirof etilayotgan masalalardan biridir. Ushbu yo'nalishda mamlakatimizda dastlabki tadqiqotlardan biri iqtisodchi olim O. Abduraxmonov tomonidan 2003-yilda olib borilgan bo'lib, oradan yigirma yildan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa-da, mazkur masala bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Olim soliqqa tortilmaydigan daromadni oddiy soliq imtiyozlari sifatida emas, balki insonning yashash huquqining moliyaviy ifodasi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, insonning normal yashashi va asosiy moddiy hamda ma'naviy ehtiyojlarini qondirishi qonunchilik bilan kafolatlangan huquq bo'lib, uni soliq siyosatida inobatga olish zarur. Bunday yondashuv kam ta'minlangan qatlamning yanada qashshoqlashishiga olib kelib, ularning iqtisodiy faolligini ham pasaytiradi.

Xalqaro tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor kambag'allik chegarasi bilan uyg'unlashtirilgan taqdirda, soliq siyosati nafaqat jamiyatdagi daromadlarni qayta taqsimlash vositasi sifatida, balki ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizm sifatida ham namoyon bo'ladi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti mezonlariga ko'ra, nisbiy kambag'allik darajasi median daromadning 50–60 foizi miqdori asosida belgilanadi. Ushbu ko'rsatkichni soliqqa tortilmaydigan minimal daromad sifatida belgilash ijtimoiy davlat modeliga xos yondashuv hisoblanadi. Biroq bunday tizimni joriy etish uchun yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, shuningdek soliq bazasini kengaytirish orqali budjet daromadlaridagi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni qoplash zarur.

Jahon banki tasnifiga ko'ra, mamlakatlar daromad darajasiga qarab yuqori daromadli, o'rtachadan yuqori daromadli, o'rtachadan past daromadli hamda kam daromadli davlatlar guruhlariga ajratiladi. Shu bilan birga, har bir guruh uchun global miqyosda kambag'allik chegarasining alohida mezonlari belgilangan. Mazkur tadqiqotda soliqqa tortilmaydigan eng kam daromad miqdori hamda kambag'allik chegarasi o'rtasidagi bog'liqlik dastlab yuqori daromadli davlatlar misolida tahlil qilinadi (1-jadvalga qarang).

Soliqqa tortilmaydigan daromad miqdori hamda milliy kambag'allik chegaralariga oid ma'lumotlar har bir mamlakatning rasmiy internet manbalari asosida shakllantirildi. Soliq solinmaydigan daromad miqdorini aniqlashda nol foizli soliq stavkasi qo'llaniladigan daromadlar, shaxsiy soliq chegirmalari, shuningdek daromad bazasidan avtomatik ravishda ayiriladigan boshqa chegirmalar ham hisobga olindi. Ta'kidlash joizki, jadvalda keltirilgan davlatlarning aksariyatida kambag'allikni baholashda nisbiy kambag'allik mezonidan foydalaniladi. Jadvaldagi barcha ko'rsatkichlar yillik hisobda berilgan bo'lib, 2024-yilga oid ma'lumotlarni qamrab oladi.

Jadvalda keltirilgan ayrim yuqori daromadli mamlakatlarda soliqqa tortilmaydigan eng kam daromad miqdori milliy kambag'allik chegarasiga juda yaqin

darajada belgilangan. Masalan, Germaniyada jismoniy shaxslar uchun 16050 yevro miqdoridagi soliqqa tortilmaydigan daromad 16572 yevro etib belgilangan kambag'allik chegarasidan 522 yevroga kam. Amerika Qo'shma Shtatlarida ushbu farq 460 dollarni tashkil etadi. Singapurda esa aksincha, soliqqa tortilmaydigan eng kam daromad kambag'allik chegarasidan 278 dollar yuqori belgilangan. Bunday ko'rsatkichlar ushbu mamlakatlarda kam ta'minlangan aholi qatlamini soliq yukidan deyarli to'liq himoya qilishga qaratilgan fiskal yondashuv mavjudligini ko'rsatadi.'

### 1-jadval

#### **Yuqori daromadli davlatlarda soliqqa tortilmaydigan daromad hamda milliy kambag'allik chegarasi ko'rsatkichlari**

<b>№</b>	<b>Davlat nomi</b>	<b>Soliqqa tortilmaydigan yillik daromad</b>	<b>Kambag'allik chegarasi</b>
1	Buyuk Britaniya	12 570 funt	9 200 funt
2	Germaniya	16 050 yevro	16 572 yevro
3	AQSH	14 600 dollar	15 060 dollar
4	Yaponiya	1 030 000 iyena	1 270 000 iyena
5	Singapur	20 000 Singapur dollari	19 722 Singapur dollari
6	Belgiya	16 500 yevro	18 235 yevro

Jadvalda keltirilgan boshqa davlatlarda ham ushbu ko'rsatkichlar o'zaro yaqin nisbatda shakllanganini kuzatish mumkin. Masalan, Belgiyada jismoniy shaxslar uchun belgilangan soliqqa tortilmaydigan daromad miqdori mamlakatdagi kambag'allik chegarasining qariyb 90 foiziga teng bo'lsa, Yaponiyada bu ko'rsatkich 81 foizni tashkil etadi. Buyuk Britaniyada esa 12 570 funt sterling miqdoridagi soliqqa tortilmaydigan daromad 9 200 funt etib belgilangan kambag'allik chegarasidan yuqori bo'lib, minimal yashash darajasidan past daromadlarga soliq solinmaydi. Umuman olganda, ko'rib chiqilgan olti nafar yuqori daromadli davlatlarning deyarli barchasida soliqqa tortilmaydigan eng kam daromad miqdori kambag'allik chegarasiga juda yaqin darajada belgilanganini kuzatiladi. Bu esa yuqori daromadli mamlakatlarda soliq siyosati minimal yashash darajasini soliq yukidan himoya qilish tamoyiliga asoslanishini, ya'ni soliqqa tortilmaydigan eng kam daromadni kambag'allik chegarasiga yaqin yoki undan yuqori darajada belgilash tendensiyasi mavjudligini ko'rsatadi.

O'zbekistonning soliqqa tortish mexanizmi hamda kambag'allik darajasiga oid ko'rsatkichlarini 1-jadvalda keltirilgan rivojlangan, yuqori daromadli davlatlar bilan to'g'ridan-to'g'ri taqqoslash to'liq asosli bo'lmaydi. Shu bois Jahon banki tasnifiga muvofiq mamlakatimiz bilan bir guruhga kiruvchi o'rtachadan past daromadli davlatlarda soliqqa tortilmaydigan eng kam yillik daromad miqdori qanday belgilanganini ko'rib chiqamiz (2-jadvalga qarang).

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, o'rtachadan past daromadli ayrim davlatlarda soliqqa tortilmaydigan daromad miqdori sezilarli darajada farq qiladi. Xususan, Hindistonda ushbu ko'rsatkich 14 000 AQSH dollarini tashkil etib, eng yuqori darajalardan biri hisoblanadi. Undan keyingi o'rinda Vetnam joylashgan bo'lib, bu mamlakatda soliqqa tortilmaydigan daromad miqdori 7 100 dollar etib belgilangan. Shuningdek, Marokash va Filippinda ham ushbu ko'rsatkich nisbatan yuqori bo'lib, mos ravishda 4 350 va 4 200 dollarni tashkil etadi. Bangladesh (2 860 dollar), Pokiston (2 140 dollar) hamda Angola (1 960 dollar) kabi davlatlarda ham soliqqa tortilmaydigan daromad mavjud bo'lib, uning miqdori o'rtacha diapazonda shakllangan.

**O'rtachadan past daromadli mamlakatlarda soliqqa tortilmaydigan daromad miqdori**

№	Davlat nomi	Soliqqa tortilmaydigan yillik daromad	
		Milliy valyutada	AQSH dollarida
1	Hindiston	1 275 000 rupiya	14 000
2	Vetnam	186 000 000 dongi	7100
3	Marokash	40 000 dirham	4 350
4	Filippin	250 000 peso	4200
5	Bangladesh	350 000 taka	2 860
6	Pokiston	600 000 rupiya	2 140
7	Angola	1 800 000 kvanza	1 960
8	Misr	60 000 funt	1 280
9	Nigeriya	800 000 naira	585
10	O'zbekiston	Mavjud emas	

Misrda bu ko'rsatkich 1 280 dollarni, Nigeriyada esa 585 dollarni tashkil etadi. Bu holat soliqqa tortilmaydigan minimal daromad instituti turli mamlakatlarda ularning iqtisodiy sharoitlari va soliq siyosatiga mos ravishda qo'llanilayotganini ko'rsatadi.

O'zbekistonda esa jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i joriy etilgan dastlabki davrlarda, shuningdek 2015–2018-yillarda soliq solinmaydigan daromad kategoriyasi amalda mavjud bo'lgan bo'lsa-da, hozirgi soliqqa tortish mexanizmidagi bunday element qo'llanilmaydi. Shu jihatdan mamlakatimizda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tizimini takomillashtirishda xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holatda quyidagilar taklif qilinadi:

1. Jismoniy shaxslar daromadlarini progressiv stavkalar asosida soliqqa tortish.
2. Progressiv soliqqa tortish mexanizmi samarali ishlashi uchun bir vaqtning o'zida aholi daromadlarini deklaratsiya asosida soliqqa tortishni yo'lga qo'yish hamda soliqqa tortilmaydigan eng kam daromadni belgilash.
3. Kambag'allik chegarasi qiymatini soliqqa tortilmaydigan eng kam daromad miqdorini sifatida belgilash.

***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

*Абдурахмонов О. Жисмоний шахслардан олинадиган солиқлар тизими ва уни такомиллаштириш масалалари. И.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис.автореф. – Тошкент, 2005, 281-б*

*Ниязметов И. Солиққа тортиш механизmlарини такомиллаштириш орқали солиқ тизими барқарорлигини таъминлаш. Иқт. фан. док... дисс. автореф //Т.: БМА. – 2018. – Т. 70.*

*Хайдаров А. (2025). 2025. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR TAHLILI. Innovations in Science and Technologies. 2, 3 (May 2025), 248–260.*

*Рузиев F.(2023). Аҳоли даромадларини солиққа тортишда солиққа тортилмайдиган минимумни жорий этиш масалалари. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. IV-son( Avgust,2023),191-200.*